

OT LEKSEMASINING TUB SO'Z MOHIYATIDA O'RGANILISHI

O'rozov Alisher

GulDU O'zbek tilshunosligi

kafedrası o'qituvchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligi muammolariga, xususan, ot leksemasining tub so'z mohiyatida o'rganilishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotning maqsadi ot leksemalarni tahlil qilish asosida otning tub so'z mohiyatidagi o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat. Ot leksemalar maqolaning illyustirativ materialisi sifatida xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: so'z, tub so'z, leksema, sema, sodda so'z, yasama so'z, ma'no, metafora, metonimiya.

Abstract. This article focuses on issues in Uzbek linguistics, specifically on the study of the root meaning of nouns. The aim of the research is to investigate the unique characteristics of the root meaning of nouns based on the analysis of noun lexemes. Noun lexemes serve as illustrative material in this article.

Keywords: word, root, lexeme, semantics, simple word, derivative word, meaning, metaphor, metonymy.

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется проблемам узбекской лингвистики, в частности, вопросам изучения сущности корневого слова, особенно в контексте лексемы "существительное". Целью исследования является изучение специфических особенностей сущности существительного на основе анализа лексем существительных. Лексемы существительных использовались в качестве иллюстративного материала в статье.

Ключевые слова: слово, корень, лексема, сема, простое слово, сложное слово, значение, метафора, метонимия.

Ot leksemasining tub soʻz mohiyatida oʻrganilishi – bu otning yasalmagan, yaʼni eng sodda va dastlabki shakldagi lugʻaviy birlik sifatida tahlil qilinshidir. Tilshunoslikda tub soʻz deb tarkibida yasovchi qoʻshimcha boʻlmagan, maʼnosi mustaqil holda mavjud boʻlgan asosiy leksemalarga aytiladi. Tarkibi asos va yasovchi qoʻshimchalarga boʻlinmaydigan soʻzlarga tub soʻzlar deyiladi. Masalan, *tosh*, *temir*, *quyosh* va boshqalar [Mahkamov N., Ermatov I., 2013: 117].

Ot leksemalar predmet, shaxs, voqea-hodisa, joy yoki tushunchani bildiradi va quyidagi grammatik belgilari bilan boshqa turkumlardan ajralib turadi. Ot leksemasi tilning nominativ birliklaridan biri boʻlib, borliqdagi narsa-hodisalarni nomlaydi. Masalan, *kitob*, *daraxt*, *inson*, *maktab* kabi. Ot lugʻaviy maʼnoga ega boʻladi, grammatik kategoriyalarni qabul qiladi, yasama soʻzlar hosil qilish uchun asos vazifasini bajaradi. Ot kim? nima? soʻroqlariga javob boʻlib keladi. Egalik, kelishik, son affikslarini olib qoʻllanadi. Gapda esa asosan ega, toʻldiruvchi, aniqllovchi kabi vazifalarda keladi.

Tub ot leksemalar tarkiban boʻlinmaydi va yasama maʼno hosil qilmaydi: *ot*, *suv*, *togʻ*, *koʻz*, *uy*, *yer*. Bu soʻzlarda yasovchi affiks yoʻq, ular tilning eng qadimgi va asosiy lugʻaviy qatlamiga kiradi.

Tub ot leksemalar tilning asosiy lugʻaviy fondini tashkil etib, boshqa yasama soʻzlar uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Narsa-buyum maʼnosini bevosita ifodalaydi. Masalan, *ish* – ishchi, ishxona, *bogʻ* – bogʻbon, bogʻcha. Bu misollarda *ish* va *bogʻ* tub ot leksemalar hisoblanadi.

Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida tub so'zlar shakl va mohiyatiga ko'ra akademik N.L.Baskakov ilmiy xulosalariga ko'ra “undosh+unli+undosh” [Баскаков Н.Л., 1952: 101] qolipida bo'ladi.

Tovushlarning nutqni shakllantirishi morfemalar tarkibida ularni ifodalashdan boshlanadi. Tovush nutqning eng kichik birligi sanalsa, morf(ema) uning tovushdan yirik, so'z (leks)dan kichik birligidir. Morfema, u asos xarakteridami, affiks xarakteridami, tovush qobig'iga o'ralib, nutq ixtiyoriga o'tadi, kommunikatsiya jarayonining real birligiga aylanadi.

Asos morfema so'z tarkibining asosiy markaziy unsuridir. Bu birlik grammatik, semantik va fonetik xususiyatlarga ega bo'lishi bilan ham muhim ahamiyatga ega.

Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar tarkibiga xos asos morfemalarni hisobga olmaganda, o'zbek tili asos morfemalarining aksariyati bir bo'g'inli bo'lib, “undosh+unli+undosh” tartibidagi tovush qobig'iga ega. Ularda o'zbek tili unli fonemalarining deyarli barchasi ishtirok etadi: *Jag'* (*j+a+g'*), *jar* (*j+a+r*), *yer* (*y+e+r*), *suv* (*s+u+v*), *qum* (*q+u+m*), *tosh* (*t+o+sh*), *bosh* (*b+o+sh*), *yosh* (*y+o+sh*) va b.

O'zbek tilida *osh*, *ish*, *uz*, *ur*, *il*, *uq*, *o'q*, *o'r*, *ur*, *o'z*, *iz*, *ich*, *ip*, *ep*, *o'l*, *o't*, *uch*, *ot*, *it*, *ek*, *er*, *em*, *ek* singari bir qator so'z-asoslar mavjudki, ular “unli+undosh” tartibidagi andozaga ega. Shuningdek, kam bo'lsa-da, *ye(y+e)*, *de(d+e)* kabi “undosh+unli” tartibidagi andozali so'z-asoslar ham uchraydi. 3-shaxs kishilik olmoshi hamda ko'rsatish olmoshlaridan biri (“*u*”) esa bir unlidan iborat. Bunday asoslar *olg'ir*, *oshpaz*, *oshliq*, *ishchi*, *uzmoq*, *urish*, *ilmoq*, *uquv*, *o'qdon*, *o'roq*, *o'zmoq*, *izla*, *ipliq*, *epla*, *o'lik*, *o'tloq*, *uchqich*, *otliq*, *ekkan*, *erka*,

emchak, ekin; yemoq, demoq; uning, unday singari soʻz va soʻz shakllari tarkibida uchraydi.

Tovush tarkibi “*undosh+unli+undosh*”, “*undosh+unli*” va “*unli+undosh*” xarakteridagi asoslar tub soʻzlar xarakterida boʻladi.

Aytilgan bu xususiyatlar oʻzbek tili leksikasining oʻz qatlamiga xos asoslargagina tegishli boʻlib, arab, fors-tojik va rus tillaridan oʻzlashib, tilimizning oʻz “mulki”ga aylanib ketgan soʻz-asoslarning fonetik qurilishi bulardan mustasnodir. Boshqa tillardan oʻzlashgan soʻz-asoslar turli xil fonetik qurilishga ega. “Undosh+undosh+unli+undosh” (*stol, stul, shkaf*); “undosh+unli+undosh+undosh” (*gʻisht, shart, mard, dard, shakl, zarb, gʻarb, goʻsht, musht, gʻirt, gard, shasht, zirk, shift*) tartibida tarkib topgan soʻz-asoslarning amali buning yaqqol dalilidir [Berdialiyev A., Ermatov I., 2022: 22].

Soʻzlarning paydo boʻlishi, hosil qilinishi nominatsiya jarayoniga tegishli hodisadir. Chunki borliq narsa-hodisalari, ularning xususiyatlari, oʻzaro munosabatlari soʻzlar yordamida nomlanadi. Shu jixatdan soʻz yasalishi onomasiologiyaga qarashli lisoniy jarayondir. Til fanining nomlash qonun-qoidalari va ularning tizimini oʻrganuvchi tarmogʻiga *onomasiologiya* deyiladi.

Nominatsiya (atash, nomlash) jarayonining *birlamchi* va *ikkilamchi* deb farqlanuvchi ikki turi (bosqichi) mavjud. Nomlash (nominatsiya) jarayonining birlamchi turida eng qadimiy, toʻgʻrirogʻi, tub soʻzlar nazarda tutiladi. Bunday soʻzlarga “ichki formasi” unutilgan *yer, suv, osh, ol, ber; ota, ona, ot, it, el, er, ish, in, uq, ur, sev(moq)* singari faqat asos morfemadan iborat bir necha yuzlab soʻzlar kiradi. Bulardan tashqari, oʻzbek tili leksikasining oʻzlashgan qatlamiga xos lugʻaviy birliklar ham nominatsiyaning birlamchi turiga tegishli boʻladi. Chunki

o'zlashgan so'zlar qaysi tilga qarashli bo'lsa, o'sha tilning nomlash ehtiyoji tufayli paydo bo'lgan bo'ladi [Berdialiyev A., Ermatov I., 2022: 69-70].

Xulosa qilib aytish mumkinki, ot leksemasining tub so'z mohiyatida o'rganilishi tilning lug'aviy qatlamini, so'zlarning kelib chiqishi va yasalish asoslarini aniqlashda muhim hisoblanadi. Tub otlar tilning eng sodda, mustaqil va ma'no jihatdan asosiy birliklari sifatida qaraladi va tahlil etiladi.

Adabiyotlar

1. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2013. – B.117.
2. Баскаков Н.Л. Каракалпакский язык. Т. II. Ч.I. – М., 1952. – С.101.
3. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Morfemika, so'z yasalishi, morfonologiya) Darslik. – T.: «TAMADDUN» nashriyoti, 2022. – B.22.